

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA BOLALAR ADABIYOTI ORQALI TIL
(LINGVISTIK) KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-
NAZARIY ASOSLARI.**

I.Ixlasov

o'qituvchi. Q.R. "Pedagogik mahorat markazi".

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13830187>

Annotatsiya. Bu maqolada o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, ijodiy fikrlash malakasini, kitobxonlik va nutq madaniyatini rivojlantirish haqida so'z etilgan.

Tayanch so'zlar: lingvistik kompetensiya, grammatikaga oid bilimlar, fonetika, leksikologiya, morfologiya.

**SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASICS FOR THE FORMATION OF
LANGUAGE (LINGUISTIC) COMPETENCE OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS
THROUGH CHILDREN'S LITERATURE.**

Abstract. This article is about the development of students' oral and written communication skills, creative thinking skills, reading and speaking culture.

Key words: language competence, knowledge of grammar, phonetics, lexicology, morphology.

**НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЯЗЫКОВОЙ
(ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ) КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ
КЛАССОВ ПОСРЕДСТВОМ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.**

Аннотация. В данной статье говорится о развитии у учащихся навыков устного и письменного общения, навыков творческого мышления, культуры чтения и разговорной речи.

Ключевые слова: языковая компетентность, знание грамматики, фонетики, лексикологии, морфологии.

Zamonamizning muhim shartlaridan biri bo'lgan fan rivoji va ishlab chiqarishdagi ulkan o'zgarishlar tufayli kelib chiqayotgan talablar ta'lim sohasi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi" PQ-3271-sonli qarori,

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 187-sonli qarori, "Ta'lim to'g'risida"gi 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-673-sonli qonunining qabul qilinishi va boshqa tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola muayyan darajada xizmat qiladi. Umumta'lim maktablarida ham ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda va bu xalq ta'limi sohasida tubdan o'zgarishlar bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Yurtboshimiz Sh. Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida ta'lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o'quv dasturlari, o'qituvchi va domlalar uchun metodik qo'llanmalar ilg'or xalqaro mezonlarga moslashtirilishi lozimligi alohida ta'kidlanganligi fikrimiz isbotidir. "Shu bilan birga bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ularga sermazzmun va tushunarli kitoblar yaratish zarurari, bu borada kelgusi o'quv yilidan boshlang'ich sinflarda davlat ta'lim standarti o'rniga ilg'or tajriba asosida, bolaga ortiqcha yuklama bermaydigan "Milliy o'quv dasturi" joriy etiladi" [1], - deya ta'kidlagani soha mutasaddilari oldiga ulkan vazifalar qo'yadi.

Respublikamiz umumta'lim maktablarida ona tilini o'qitishda o'quvchilarning nutqini o'stirish, lug'at ustida ishlash, ta'lim oluvchilarning ijodiy fikrlashlariga zamin yaratish va darslarni integrativ yondashuvlar asosida tashkil etish borasidagi muammolar bir qator olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Sh. Yusupov [9], G. Axmedova [2], O. Oxunjonova [6], M. Haydarov [4], B. To'xliyev [7] larning tadqiqot ishlari taqsiinga loyiqdir.

Respublikamiz umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida adabiy tushunchalarini shakllantirish masalalari Q. Abdullayeva, S. Matchonov, B. Makulova, T. G'afforova, G. A. Mamatova; yuqori sinf adabiyot darslarida o'quvchilarning adabiy-nazariy tushunchalarini shakllantirish masalalari A. Zunnunova, Q. Yo'ldoshev, M. Mirqosimova, U. M. Marasulova, R. X. Niyozmetova, Q. P. Husanboyevalarning ilmiy ishlarida tahlil etilgan; boshlang'ich sinf o'quvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari K. Qosimova, Sh. Yo'ldosheva, X. G'ulomova, A. Nisanbayevalar tomonidan tadqiq qilingan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlari olimlari ham o'zlarining davlat tillarini o'qitish yuzasidan minglar ilmiy tadqiqotlar o'tkazganlar. Ularda ta'limning turli bosqichlarida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish va takomillashtirish, shu bilan birga nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish yuzasidan ilmiy-metodik ishlar amalga oshirilgan. Bunday tadqiqotchilar sirasiga M. R. Lvov [12], R.A. Budagov [10], E. M. Katanova [11], V. A. Maslova [14], M. R. Mayenova [13] larning ishlarini aytib o'tish joizdir. Bugungi kunda ta'lim sohasida kompetensiya, kompetentlilik kabi tushunchalar muomalada juda keng foydalanilmoqda. Bu so'zning asl ma'no-mazmuni

nimalardan iborat? Kompetensiya (“competence”, “to compete” soʻzidan kelib chiqib) soʻzi oʻzida “musobaqalashmoq”, “raqobatlashmoq”, “bellashmoq” maʼnolarini ifodalaydi. Soʻzma-soʻz tarjima qilganda “musobaqalashishga layoqatlilik” maʼnosida ifodalanadi. Atamaning mohiyati shundan iboratki, “samaradorlik”, “moslashuvchanlik”, “yutuqlilik”, “muvaffaqiyatlilik”, “natijalilik”, “tushunuvchanlik”, “xususiyat”, “sifat”, “miqdor” kabi tushunchalar bilan tasniflanadi [5].

Yuqoridagi maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki, lingvistik kompetensiya oʻquvchilarda tilning grammatikaga oid bilimlarini rivojlantirish va oʻzbek tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda oʻquvchilar oʻz fikrlarini toʻgʻri, izchil, ravon va maʼnoli, shu bilan birga tinglovchiga tushunarli tarzda bayon etishini shakllantirishdan iborat.

Tilning grammatikaga oid bilimlari deyilganda esa biz tilshunoslik fanining boʻlimlari: fonetika - tovushlar, leksikologiya - soʻzlarning lugʻaviy boyligi, soʻzning tarkibi, soʻz yasalishi, morfologiya - soʻz shakllari, sintaksis - soʻz tuzilishi va qurilishi, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublariga oid tushunchalarni egallashi tushuniladi [4]. Mazkur kompetensiyani rivojlantirish mazmuni oʻquvchilarda fikr va mulohazalarini oʻz ona tilida erkin, aniq, qisqa, ravon va tushunarli tarzda bayon eta olishiga, oʻz nutqida adabiy til normalariga rioya qilgan holda soʻzlash, imlo va uslubiy xatolarsiz fikr almashishga yordam beradi. Umumtaʼlim maktablarida mazkur kompetensiyalarga ega oʻquvchini tarbiyalash “Ona tili” fanining zimmasidadir.

Biroq amaldagi darsliklarimiz lingvistik bilimdon oʻquvchini qay darajada tarbiyalamoqda?! Olima G. Yusupovanning “Boʻlajak pedagoglarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda aralash taʼlimdan foydalanish metodikasi” nomli tadqiqoti natijasida boʻlajak pedagoglarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda aralash taʼlimdan foydalanishning tanishuv, ijodiy qism, baholash bosqichlari, oʻzbek tilini bilish darajasini xalqaro mezonlar asosida baholash texnologiyalari aniqlashtirilganligini koʻrishimiz mumkin [7]. Mazkur tadqiqotda taʼlim jarayonida oʻquvchilarning oʻzbek tilini bilish darajasini xalqaro mezonlar asosida baholash texnologiyalari boʻyicha asoslab berilganligi ishning yutugʻi hisoblanadi. Ona tili darslarining asosiy maqsadi oʻquvchilarda tilshunoslikka oid nazariy bilimlarni boyitish emas, balki oʻquvchilarda mazkur bilimlarni amaliyotda tadbiq eta olish, qoʻllash koʻnikmalarini shakllantirish deb belgilab olish bugungi kun taʼlim sohasi oldida turgan asosiy muammo hisoblanadi.

Mazkur muammoning yechimi sifatida oʻquvchilarda lingvistik bilimlarni badiiy adabiyot vositasida shakllantirish esa nazariy bilimlarni kontekst ichida kelishi bilan bogʻlagan holda tushuntirish bilim oluvchilarning oʻqib oʻrganganlarini tushunarli va esda qolarli boʻlishini taminlaydi. Bolalar adabiyoti orqali boshlangʻich sinf oʻquvchilarining lingvistik

kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini yaratish maqsadini amalga oshirish uchun bir qator vazifalar ishlab chiqildi. Mazkur vazifalar quyidagilar etib belgilandi: - ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish yuzasidan pedagogik va metodik imkoniyatlarni tahlil qilish; - boshlang'ich sinf o'quvchilarining lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik komponentlarini yaratish, mavjudlarini takomillashtirish; - ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari yordamida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdagi didaktik jihatlarini belgilash; - boshlang'ich sinf o'quvchilarining lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-metodik taminotini takomillashtirish; - "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligini tahlil qilish va darslik mavzularini mustahkamlashga xizmat qiluvchi qo'shimcha metodik adabiyotlar ishlab chiqish.

Mazkur vazifalarning amaldagi holati boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun xizmat qilsa, o'quvchilar uchun esa maktabda olgan bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada turli qarorlar, prezident farmonlari ham mavjud bo'lib, ular orqali yoshlarga ko'plab imkoniyatlar berish nazarda tutilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining 4-bobi "Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar" deb nomlangan hamda ushbu bobda quyidagi bo'limlar mavjud: Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishda quyidagi natijalarga erishish nazarda tutilmoqda:

-oliy ta'lim sohasida davlat xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasining 50 foizdan yuqori bo'lishi ta'minlanadi, sohada raqobat muhiti yaratiladi;

-xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlari joriy etiladi, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tiladi;

-oliy ta'lim mazmuni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tariladi, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimi yo'lga qo'yiladi;

-oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligi ta'minlanadi;

-oliy ta'limning investitsiyaviy jozibadorligi oshiriladi, xorijiy ta'lim va ilm-fan texnologiyalari jalb etiladi;

-talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus asosida rivojlantiriladi;

-ta'limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligi yo'lga qo'yiladi.

Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilariga ona tili fanidan qo'yiladigan talablar.

(4-sinf)
Lingvistik kompetensiya
Sintaksis:
gaplardagi ega, kesimni farqlaydi;
matn bo'yicha savol tuzadi, berilgan savollarga javob yozadi;
mashq matnidagi so'z birikmalarini to'g'ri yozadi;
gapning maqsadiga ko'ra turlarini to'g'ri farqlaydi;
gaplarda va matnlarda tinish belgilari (nuqta, vergul, so'roq) ni to'g'ri qo'llaydi

Biz foydalanayotgan til turli birliklardan, vositalardan iborat. Ularning har biri tilda o'zining muhim vazifasini bajaradi. Tahlil qilinganda til birliklari ajratiladi, aniqlanadi va izohlanadi. Til birligi bir-biridan vazifasi, ifoda material, tuzilishi va tizimdagi o'rni bilan farqlanadigan til hodisasidir: gap, so'z birikmasi, so'z, tovush, qo'shimcha. Tilning asosiy ijtimoiy vazifasi fikrni shakllantirish, uni ifodalash, odamlar orasida fikr almashuv vositasi bo'lib xizmat qilishdan iborat. Tilning fikrni shakllantirish vazifasi so'zlar, qo'shimchalar va ularda mujassamlashgan ma'nolar yordamida amalga oshsa, fikrni ifodalash, uni birovga yetkazish vazifasi gap orqali namoyon bo'ladi. So'zlarning tildagi muayyan qonun-qoidalar asosida o'zaro birikuvidan so'z birikmasi va gaplar hosil bo'ladi. So'z birikmalari va gaplar o'z qurilishi hamda ifoda mazmuniga ko'ra farqlanadi. So'z birikmalari va gaplarning qurilishi hamda ifoda xususiyatlarini o'rganuvchi til bo'limi sintaksis deyiladi. Sintaksis yunoncha "syntaxis" so'zidan olingan bo'lib, yopishtirish, bog'lash demakdir. Sintaksis so'zlarning bir-biriga bog'lanishi hamda gap tuzilishi qonunqoidalarini o'rgangani uchun unda:

- 1) so'z birikmasi sintaksisi;
- 2) gap sintaksisi kabi bo'limlar mavjud.

Gap og'zaki nutqda ma'lum bir ohang bilan aytiladi. Bu ohang yozuvda tinish belgilari bilan ifoda etiladi. Tinish belgilari qo'llanishi haqidagi qoidalar yig'indisi punktuatsiya deyiladi.

Har qanday til o'zining nutq tovushlari, so'zlari (iboralari) va qo'shimchalaridagi imkoniyatlarini sintaksisda, ya'ni gap qurilishida namoyon qiladi. Sintaksis tilimiz

imkoniyatlarining ko'zgusidir.

Ta'limdan asosiy maqsad bolalarga bilim berishgina emas, balki bilim olish yo'llarini o'rgatish, ularni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish demakdir. Yangicha ijtimoiy, iqtisodiy sharoitda ona tilini o'qitish mazmunini takomillashtirish, darslarni jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilish o'quvchi faolligini oshiradigan muhim omillardan hisoblanadi.

Nutqiy faoliyatda har bir til hodisasining o'z o'rnini, o'z vazifasi bor. Yoshlar til imkoniyatidan vaziyatga qarab foydalanish malakasiga ega bo'lishlari, o'z fikrini aniq ifodalashga, zarur bo'lgan so'z va gap shakllari, ibora va tasviriy ifodalarni tanlay va qo'llay bilishlari davr talabidir. Buning uchun ona tili o'qituvchisi o'z ixtisosligini puxta bilishi, ilg'or pedagogik texnologiya hamda zamonaviy o'quv-texnik vositalaridan yaxshi xabardor bo'lishi lozim. Shundagina ta'lim samarasi ham, o'qitish darajasi ham yuqori bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili fanini o'qitishning maqsadi – o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, ijodiy fikrlash malakasini, kitobxonlik va nutq madaniyatini rivojlantirishdan iborat. Ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi: o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'z g'alar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchilarda grammatikaga oid bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) shakllantirish va rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda o'qigan, ko'rgan, eshitganlarini nutqiy to'g'ri va ravon bayon eta olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "O'zbekiston nashriyoti" Toshkent-2021.
2. Axmedova G.M. O'zbek tili darslarida o'quvchilar nutqini yasama so'zlar bilan boyitishning metodik asoslari: ped.fan.nom. diss. – Toshkent, 2007. 3. Haydarova M.E. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – Toshkent.: Fan va texnologiya, 2009.
3. M. A. Kenjayeva. 5-6-sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi: ped.fan.dok (PhD). ...diss. – Toshkent, 2021.
4. Ona tili va adabiyot fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar o'quv moduli. - Toshkent. 2017. -110-b.
5. Oxunjonova O. Ta'lim bosqichlarida sinonimlar mavzusini o'qitish metodikasi: ped.fan.nom. ...diss. – Toshkent, 2009. – 140-b.

6. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent. 2010. – 314-b.
7. Yusupova G. Bo'lajak pedagoglarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda aralash ta'limdan foydalanish metodikasi: ped.fan.dok (PhD). diss. – Urganch. 2020.
8. Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek dabiyy tili darslarida o'quvchilar tafakkurini o'stirishning ilmiy-metodik asoslari (akademik litseylar misolida): ped.fan.dok. ... diss. – Toshkent, 2005. – 279-b.
9. Будагов Р.А. Язык – реальность – язык [Текст] – Москва: Наука, 2003.
10. Катонина Е.М. Развитие языковой и речевой способности младших школьников. – Москва, Печатковская школа, 2004. – № 6. – С. 20.
11. Львов М.Р. Методика развития речи младших школьников: пособие для учителей начальных классов. – Москва: Просвещение, 1979. – 431 с.
12. Майенова М.Р. Лингвистические принципы адаптивного художественного текста. Автореф.дис. канд. пед. наук. – Москва, 2005.–212 с. Маслова В.А. Лингвокультурология [Текст]. – Москва: Изд. центр
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish